XALQ DEPUTATLARI GULISTON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 31-oktabr VII-17-122-9-130-K/25 Guliston shahar

Guliston shahridagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Guliston shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan

mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Guliston shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Guliston shahar “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Guliston shahri hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi quyidagi takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida, kelgusi yil uchun 254 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 2.2 foiz (104 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 0.6 foiz (28 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 1.9 foiz (87 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 0.5 foiz (24 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 0.3 foiz (11 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Guliston shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yishni tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Guliston shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Guliston shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘lari to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Guliston shahar Kengashining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash, tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmasligi belgilab qo‘yilsin.

8. Guliston shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (A.G‘oybnazarov):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1-2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha Xalq deputatlari Guliston shahar Kengashining ushbu qarori

bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari G‘Botirov zimmasiga yuklansin.

11. Mazkur qaror qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi  XODJIMANOV JAMOLIDDIN XUSNUDDINOVICH

Xalq deputatlari Guliston shahar Kengashining
2025-yil 31-oktabrdagi
VII-17-122-9-130-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Guliston shaharda 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
ЖАМИ:			**3726**	**53,00**	**201**	**80**	**19**	**71,7**	**18,4**	**11,4**	**0,0**
1	O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA`LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA`LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI GULISTON SHAHAR 1-SON IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB-	200322804	94	2	4,6	1		1,5	1,6	0,5	

	INTERNATI										
2	GULISTON SHAHAR 1- UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	206869926	92	1	5,4	3,0	1,4	1,0			
3	SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR 4-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	207012654	35	0	2,5	1,0		1,5			
4	SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR 6-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	207012662	65	1	3,6	2,0		1,6			
5	GULISTON SHAHAR 17-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	207262749	84	2	3,9	1,0		1,0	1,0	0,9	
6	SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR 18-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MUASSASASI	308147640	108	3	4,6	1,0	1,0	1,0	1,0	0,6	
7	RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN ONA VA BOLA SALOMATLIGI ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI SIRDARYO VILOYATI FILIALI	200322321	834	17	41,4	12,4	5,0	15,0	5,0	4,0	
8	RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN RUXIY SALOMATLIK ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZINING NARKOLOGIYA XIZMATI BO`YICHA SIRDARYO VILOYATI FILIALI	200322504	114	1	7,0	4,5		2,5			
9	SIRDARYO VILOYATI MUSIQALI DRAMA TEATRI	200322567	154	4	6,8	2,0		3,0	1,8		

10	ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SIRDARYO VILOYAT AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI	200323810	78	0	5,5	3,0		2,0	0,5		
11	SIRDARYO IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT MAKTAB - INTERNATI	200966414	98	2	4,9	2,0	1,0	1,0	0,9		
12	O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO `JALIGI VAZIRLIGI SIRDARYO VILOYATI QISHLOQ XO`JALIGI BOSHQARMASI	201705064	124	3	5,7	3,0	1,0	1,7			
13	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN ONKOLOGIYA VA RADIOLOGIYA ILMIY AMALIY TIBBIYOT MARKAZINING SIRDARYO VILOYAT FILIALI	202385155	263	5	13,4	4,0	2,0	4,0	2,0	1,4	
14	GULISTON SHAHAR 5-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	204586394	137	2	7,6	3,0	1,0	2,0	1,6		
15	"SIRDARYO VILOYATI YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI" unitar korxonasi	204773938	59	0	4,1	2,1	1,0	1,0			
16	GULISTON SHAHAR 16-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	205018949	150	2	8,5	4,5	1,0	3,0			
17	GULISTON SHAHAR 6-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	206869886	157	1	10,0	4,0	1,0	3,0	1,0	1,0	
18	GULISTON SHAHAR 2-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	206869965	187	4	9,1	3,0	1,0	3,0	1,0	1,0	

19	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI G'AZNACHILIK XIZMATI QO'MITASINING SIRDARYO VILOYATI G'AZNACHILIK XIZMATI BOSHQARMASI	206921545	58	0	4,1	2,0	1,0	1,0			
20	O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA`LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA`LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI IJOD MAKTABI	306626591	86	1	5,0	2,0		3,0			
21	O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA`LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA`LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI GULISTON SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABI	308850772	94	2	4,6	2,0		2,0		0,6	
22	1-SON BOLALAR "MUSIQAVA SAN'AT MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	200322314	71	1	4,0	2,0		2,0			
23	"SIRDARYO VILOYAT DAVLAT ARXIVI" DAVLAT MUASSASASI	200322574	28	0	2,0	1,0		1,0			
24	"SIRDARYOSUVQURILISHINVEST" DAVLAT MUASSASASI	200322986	36	0	2,5	1,0		1,5			
25	"GULISTON SHAHAR 2-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	202581023	56	1	2,9	1,0		1,0	1,0		

26	"SIRDARYO VILOYATI OITSGA QARSHI KURASHISH MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	203973143	92	2	4,4	2,0	1,0			1,4	
27	"QUYI SIRDARYO IRRIGATSIYA TIZIMLARI HAVZA BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI	204692532	37	0	2,6	2,0		0,6			
28	"VILOYAT BOLALAR TIBBIY REABILITATSIYA MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	205976034	57	1	3,0	1,0		2,0			
29	"GULISTON SHAHAR 3-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206869934	65	1	3,6	1,6		2,0			
30	"SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR 10-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207007288	60	1	3,2	1,0	1,0	1,2			
31	"SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR 11-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207007304	36	0	2,5	1,0		1,5			
32	"SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR 14-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207032227	28	0	2,0	1,0		1,0			
33	"SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR 1-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207032298	30	0	2,1	1,0		1,1			
34	"SIRDARYO YURIDIK TEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI	305668533	29	0	2,0	1,0		1,0			

35	"O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI O`ZBEK MILLIY MAQOM SAN`ATI MARKAZINING SIRDARYO VILOYATI HUDUDIY BO`LIM" DAVLAT MUASSASASI	310026673	30	0	2,1	1,0		1,1			

Xalq deputatlari Guliston shahar Kengashining
2025-yil 31-oktabrdagi
VII-17-122-9-130-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Guliston shahrida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar *(davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
Jami:			**1045**	**20**	**53,15**	**24**	**9**	**15**	**5,16**
1	"CHELEBI TEXTILE" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONA	306581444	757	17	35,99	16	6	10	4

2	"BUNYODKOR GO`SHT SUT TA`MINOT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	308247532	288	3	17,16	8	3	5	1,16